

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

5 ЖИЛД, 3 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ

ТОМ 5, НОМЕР 3

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

VOLUME 5, ISSUE 3



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ | INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

№3 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2022-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Аскарлов Абдор Давлатмирзаевич
педагогика фанлари бўйича фалсафа
доктори

Педагогика йўналиши

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Мухамедова Дилбар Гафурджановна
психология фанлари доктори, профессор

Психология йўналиши

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ EDITORIAL BOARD РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Муслимов Нарзулла Алиханович
педагогика фанлари доктори, профессор

Джораев Мухамматрасул
педагогика фанлари доктори, профессор

Тўрақулов Олим Холбўтаевич
педагогика фанлари доктори

Урзова Марина Батировна
педагогика фанлари доктори

Шорена Дзамукашвили
педагогика фанлари доктори

Шорена Вахтангишвили
педагогика фанлари доктори

Нурманов Абдиназар Ташбаевич
педагогика фанлари доктори

Халиков Аъзам Абдусаломович
педагогика фанлари доктори

Аюпова Мукаррам
педагогика фанлари номзоди, профессор

Джумаев Маманазар Иргашевич
педагогика фанлари номзоди, профессор

Ҳамидов Жалил Абдурасулович
педагогика фанлари доктори

Асилова Гулшан Асадовна
Педагогика фанлари доктори, доцент

Саипова Малоҳат Латиповна
психология фанлари бўйича фалсафа доктори

Ҳажиева Ирода Адамбаевна
филология фанлари номзоди, доцент

Азимова Насиба Эргашовна
педагогика фанлари номзоди, доценти

Ахмедова Зебинисо Азизовна
фалсафа фанлари номзоди

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Rakhimov Matlab Farkhodovich PHYSICAL EDUCATION AND SPORT AS A SOCIAL PHENOMENON.....	4
2. Қодирова Мадинабону Тургуновна ОТМ АРАБ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИСИ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ИЖТИМОЙ ШАРТ- ШАРОИТЛАРИ.....	7
3. Asilova G.A. O‘ZBEK TILI TA‘LIMIDA FONETIK VA LEKSIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH (A1 daraja).....	17
4. Nazarova L. PSYCHOLINGUISTIC FACTORS IN FLIPPED CLASSES OF FOREIGN LANGUAGE LEARNING FOR ADULTS.....	23
5. Turg‘unboyev Sirojiddin Faxriddinovich OILAVIY BOLALAR UYI TARBIYALLANUVCHILARIDA KITOB O‘QISH MADANIYATINI SHAKLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	28
6. Rejаметова Irada Ikramshikovna, Norbutayev Samandar Abdubakirovich YETIM VA OТА-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH.....	33
7. Хажиева И.А. АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ, КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ.....	38
8. Гизатулина Ольга Ивановна МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В ВУЗАХ.....	43
9. Носиров Рашод Адилевич, Рахимова Машхура Иномжановна, Темирова Светлана Владимировна ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ ОНГНИНГ ЎЗГАРИШИ - ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАР ТАХЛИЛИ.....	51
10. Зарипова Д. А. ТАЪЛИМНИ АХБОРОТЛАШТИРИШДА ТАЛАБАЛАРНИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ SMART УСУЛИ АСОСИДА ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ АҲАМИЯТИ.....	58



Rejаметова Ирада Икрамшиковна

O‘zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti

dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

rejametova_i@mail.ru

Norbutayev Samandar Abdubakirovich


Andijon shahar “Bolalar shaharchasi”

direktorining birinchi o‘rinbosari, mayor

samandarnor@mail.ru

YETIM VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

For citation: I.I.Rezhametova, S.A.Norbutayev. Development of social competence in orphans and children left without parental care. Journal of innovations in pedagogy and psychology, Vol. 5, Issue 3, 2022, pp.33-37

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6482233>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchalari va Oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga moslashtirish masalalari, oilaviy ta‘limni targ‘ib qilish markazlari o‘quvchilarida ijtimoiy kompetentsiyalarni shakllantirish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, maqolada “Kompetentlik”, “Ijtimoiy kompetentsiya” kabi tushunchalarga ilmiy adabiyotlar tahlillariga asoslangan holda bir qator shuning bilan birga keng ma‘nodagi ta‘riflar keltirilib ijtimoiy intellektga bag‘ishlangan chet elda asarlar tahlili aks etirilgan.

Kalit so‘zlar: Mehribonlik uyi, Bolalar shaharchasi, Oilaviy bolalar uyi, ijtimoiy kompetensiyalar, ijtimoiy kompetentsiyalarni shakllantirish, homiylik ostidagi oila, oila, tarbiya, yetimlar, ota-onalar, bolalar, ijtimoiy intellekt.

Режаметова Ирада Икрамшиковна

кандидат педагогических наук, доцент

Университета общественной безопасности

Республики Узбекистан

rejametova_i@mail.ru

Норбутаев Самандар Абдубакирович

Андижан город «Детский городок»

Первый заместитель директора, майор

samandarnor@mail.ru

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ДЕТЕЙ-СИРОТ И ДЕТЕЙ, ОСТАВШИХСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ

АННАТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы адаптации детей-сирот и детей, лишенных родительской опеки в детских домах, детских лагерях и семейных детских домах, формирование социальных компетенций у воспитанников центров семейного воспитания.

В статье также приводится широкий спектр определений таких понятий, как «Компетентность» и «Социальная компетентность» на основе анализа научной литературы, а также анализа зарубежных работ по социальному интеллекту.

Ключевые слова: “Детский дом”, “Детский городок”, “Семейный детский дом”, социальные компетенции, формирование социальных компетенций, приемная семья, семья, воспитание, дети-сироты, родители, дети, социальный интеллект.

Rezhametova Irada Ikramshikovna

Lecturer at the University of
Public Security of the
Republic of Uzbekistan
rejametova_i@mail.ru

Norbutayev Samandar Abdubakirovich

Andijan City "Children's Town"
First Deputy Director, Major
samandarnor@mail.ru

DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE IN ORPHANS AND CHILDREN LEFT WITHOUT PARENTAL CARE

ABSTRACT

This article discusses the issues of adaptation of orphans and children deprived of parental care in orphanages, children's camps and family orphanages, the formation of social competencies among pupils of family education centers.

The article also provides a wide range of definitions of concepts such as “Competence” and “Social Competence” based on an analysis of the scientific literature, as well as an analysis of foreign works on social intelligence.

Keywords: “Orphanage”, “Children's Town”, “Family Orphanage”, social competencies, formation of social competencies, foster family, family, upbringing, orphans, parents, children, social intelligence.

Hozirgi kunda yurtimizda yoshlarga bo‘lgan e‘tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bu borada ayniqsa Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari va Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga qaratilayotgan e‘tibor, ularni komil inson sifatida shakllanishi, vatan oldidagi muqaddas burchlarini sidqidildan ado etishlari, yuksak ma‘naviyatli barkamol avlod sifatida jamiyatda o‘z o‘rinlarini topib ketishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar taqsiqga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bir qator qabul qilayotgan Qarorlari ham Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarini manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5215 sonli, “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5216 sonli qarorlari va “Bola huquqlarining kafolatlarini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6275 sonli farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama

qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 26-sonli qarorlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Shunday yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish, Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari va va Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini o‘quv faoliyatiga yo‘naltirib, oliy ta‘lim muassasalariga keng miqyosda jalb etish, jamiyatimizning ziyoli qatlamini yanada kengaytirish tarbiyachilar, psixologlar, o‘qituvchilar, bolaga ijtimoiy moslashishga yordam beradigan shaxslar hisoblanadi.

Ushbu mavzu bilan bog‘liq muammo juda ham dolzarb, chunki bolalar har doim ham o‘z oilalarida yashash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, ota-onalar o‘z bolalaridan tug‘ruqxonalarda voz kechishlari mumkin. Va bu holda, ularning o‘shish, ta‘lim, ijtimoiylashuv, moslashish, o‘qitish ushbu muassasalar xodimlarining yelkasiga tushadi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, asrab olingan bola oilaga moslashishi kerak bo‘lgan barcha ijtimoiy qobiliyatlarga ega bo‘lmasligi mumkin. Oila tarbiyasi (patronat)ga berilgan oilalarda, bu bilan bog‘liq nizolar va har xil turdagi tutingan ota-ona va bola munosabatlaridagi tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar ta‘lim-tarbiya jarayoniga pedagogik kompetentsiyalarni joriy etish yuqorida keltirib o‘tilgan muamolarning pedagogik yechimi sifatida qarash mumkin.

“Kompetentlik” – tushunchasi dastlab ta‘lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo‘lib, zamonaviy atama sifatida qo‘llanilib kelinmoqda [3].

«Competentia» lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘zbek tilidagi tarjima qilinganda unung lug‘aviy ma‘nosi «yaxshi biladigan inson», «tajribaga ega bo‘lgan kishi» kabi ma‘nolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik ta‘lim jarayonida sodir boladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar rahbarning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, qo‘l ostidagilarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, raqobatdosh tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda rahbar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qo‘llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi [1].

Ijtimoiy kompetentsiya – bu ijtimoiy hulq-atvorni tanlash va shunga ko‘ra o‘z xatti-harakatlarini tartibga solish qobiliyati. Ijtimoiy voqelik va o‘zi haqidagi bilimlar tizimi, murakkab ijtimoiy ko‘nikmalar va o‘zaro ta‘sir qilish qobiliyatlari tizimi, tipik ijtimoiy vaziyatlarda xatti-harakatlar stsenariylari [2].

Chet elda ijtimoiy intellektga bag‘ishlangan asarlar, bu hodisalar ko‘pincha birlashtiriladi. M.Argyle “Shaxslararo xulq-atvor psixologiyasi” kitobida ham ijtimoiy axborotlar haqida fikr yuritiladi, ularni kasbiy va kommunikativ kompetentsiya bilan birlashtiradi [4].

M.Argyle ijtimoiy kompetentsiyani quyidagicha ta‘riflaydi:

- ijtimoiy sezuvchanlik (ijtimoiy idrok etishning aniqligini bildiradi);
- o‘zaro ta‘sir qilish qobiliyatlari (ko‘nikmalar tarkibi, ayniqsa mutaxassislar uchun muhim);
- barcha ijtimoiy vaziyatlar uchun zarur bo‘lgan qabul qilish va rag‘batlantirish ko‘nikmalari;
- muvozanat, xotirjamlik, ijtimoiy xavf xatarga qarshi reaksiya bildirish sifatida.

1980-yillarda bir qator mualliflar kompetentsiyaning motivatsion va operativ tomonlarini, uning xulq-atvor ko‘rinishlari xususida ilmiy dalillarga tayanib fikr mulohazalar bildirar ekan ular, kompetentsiyaning mezonini o‘zaro ta‘sirning samaradorligi muhim ijtimoiy maqsadlarga erishish mumkinligini keltirib o‘tadi [6].

Tegishli vositalardan foydalangan holda va ijobiy natijalar bilan K.Rubin va L.Rouz-Kresnorlar kompetentsiya modeliga ijtimoiy stsenariylar (ya‘ni ma‘lum vaziyatlarda muvofiqlashtirilgan harakatlar) tushunchasini kiritadilar [5].

Kompetentsiyani ijtimoiy olam va o‘zi, bu dunyodagi o‘rni, xulq-atvor usullari va ijtimoiy o‘zaro ta‘sirni osonlashtiradigan xulq-atvor stsenariylari, kompetentsiya haqidagi bilimlar sifatida ifodalash mumkin. Uning funksiyalari ijtimoiy mo‘ljal olish (orientatsiya), moslashish, umumiy ijtimoiy va shaxsiy tajribani birlashtirishga xizmat qiladi [9].

Kompetensiya tez va adekvat moslashishga, mavjud vaziyatni hisobga olgan holda mahorat bilan qaror qabul qilishga imkon beradi, vaziyatlardan maksimal foyda olish uchun “bu yerda, hozir va eng yaxshi usulda” tamoyili asosida harakat qilish [7].

Kompetentsiya - operativ tushuncha bo‘lib, tarixiy xususiyatga ega. O‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda insonning muvaffaqiyatli ishlashining kaliti bu yangi ijtimoiy voqelikka javob beradigan va o‘zaro hamkorlar tomonidan kutilgan xatti-harakatlar stsenariylarini ishlab chiqishdir [10].

Asosiy kompetentsiyaning vazifalari - ijtimoiy yo‘naltirish, moslashish, umumiy ijtimoiy va shaxsiy tajribani birlashtirish. Biz ijtimoiy kompetentsiyalarni qiyinchilikni yengish yo‘li sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

V.E.Uayt “Ijtimoiy kompetentsiyani shaxsning atrof-muhit bilan samarali munosabatda bo‘lish qobiliyati deb hisoblaydi. Ijtimoiy kompetentsiya shaxsga to‘g‘ri qaror qabul qilishga va o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradi [8].

O‘smirlik davri - inqiroz yoshi hisoblanadi va o‘z-o‘z borayotgan shaxs rivojlanishining ushbu davrida “moslashish”, “ijtimoiylashuv”, “kompetentlik” tushunchalari shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bu kabi jarayonlar quyidagi jarayonlarda namoyon bo‘ladi:

- bolaning kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati;

- mustaqillikni shakllantirish va o‘zini o‘zi boshqarishni o‘rganishga harakatlar;

- ijtimoiy intellektni, empatiyani rivojlantirish, tengdoshlar bilan umumiy ishlarga tayyorlikni shakllantirish;

- har xil turdagi mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish va ijodkorlik;

- jamiyatda, kundalik hayotda, tabiatda xavfsiz xulq-atvorni shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi davrda, maktabgacha ta‘lim muassasasida bo‘lish davrida, bolaning jamiyatda to‘liq hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan barcha kompetentsiyalarni oilada amalga oshirish mumkin.

Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan yetim bolalarda ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirishni bir qator tarbiyaviy xususiyatlarni bolalarga singdirish kerak:

1) kattalarga, tengdoshlarga va kichiklarga hurmat;

2) ma‘naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish;

3) vatanparvarlik;

4) o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish.

Ta‘lim va tarbiya jarayonida interfaol ta‘lim yordamida tarbiyalanuvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi.

Иктибослар / Сноски / References:

1. Muslimov N.A Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kopotentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
2. Usmonboyeva M., Rejametova I. va boshq. Ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish Metodik qo‘llanma. –Toshkent, 2019.
3. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. -T.: BROK CLASSSERVIS, 2016. - 84 b.
4. Габеляя И.В. Вестник ЮУРГУ. Серия «Психология»// Показатели социальной компетентности у подростков. 2013. том 6. № 3. – 116 – 119 с.
5. Игнатович С.С., Игнатович В.К., Игнатович А.В. Взаимодействие семьи и школы как основного воспитательного института в обществе. Педагогика: история, перспективы. 2020.Том. 3. № 4. С. 18 – 24.

6. Кинах Ю.С., Родермель Т.А., Мамкина Т.М. Влияние стилей детско-родительских отношений в полных и неполных семьях на формирование социально-психологической компетенции дошкольника / г. Сургут. – 32с.
7. Коблянская Е.В. Психологические аспекты социальной компетенции. / Автореферат дисс. – 1995 г. – 17 с.
8. Сорокина С.А. Развитие самостоятельности через формирование культурно-гигиенических навыков у детей раннего возраста // Актуальные проблемы экологии и здоровья человека. – Череповец – 2015. – с. 43 – 47.
9. Социальная работа: теория и практика: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / Е.Н. Приступа [и др.]; под редакцией Е.Н. Приступы. – Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 306 с.
10. Формирование личностных компетенций учащихся / сост. Кузнецова Н.А. – Волгоград: Учитель. – 2014. – 156 с.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

5 ЖИЛД, 3 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ
ТОМ 5, НОМЕР 3

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY
VOLUME 5, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000